

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI

BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



Ro'yxatga olindi: № BD 60211400-1.13

ANSAMBL
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at

Ta'lif yo'nalishi: 60211400 - Vokal san'ati: estrada xonandaligi

Fan/modul kodi ANS1835	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-8	ECTS-Kreditlar 35	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ansambl	480	570	1050
2.	I. Fanning mazmuni			
	<p>“Ansambl” fanining asosiy maqsadi – talabaning anasambl bo‘lib kuylash malakalarini rivojlantirish.</p> <p>“Ansambl” fanining o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir.</p> <p>Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘ydagi talablar qo‘yiladi.</p> <p>“Ansambl” fani estrada sahnasida keng faoliyat ko‘rsatadigan, yuqori malakali mahoratga ega xonandalarni tayyorlash uchun muxim o‘rin tutadi. Ansambl fani – estrada ijrochiligidagi xonandan asar ijrosida sof intonatsiya, rivojlangan garmonik eshitish qobiliyati, ko‘p ovozli ansambl asarlarini notaga qarab sof kuylash, turli ansambl va guruhlar bilan yakka va bck-vokal tarkibida mustaqil ijodiy ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi.</p> <p>“Ansambl” fani majburiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1, 2, 3 va 4-kurslarda o‘qitilishi maqsadga muvofik.</p> <p>Quyidagi berilgan modullar va mavzular bir yillik ta'limga mo‘ljallangan. Keyingi 2-chi, 3-chi, 4-chi kursdagi amaliy mashg‘ulotlarda berilgan modullar va mavzular murakkablashgan tarzda o‘tkaziladi.</p>			
	<p>II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">I - VIII SEMESTRLARI</p> <p style="text-align: center;">Ansambl (Estrada xonandaligi ansambl) (1-8 semestrlar)</p> <p>1 kurs. Birinchi va ikkinchi semestr. Dasturiy talablar:</p> <p>Har semestrda o‘zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.</p> <p>2 ta estrada asarlari vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart:</p>			

- 1 - O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i yoki O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;
- 2 - jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

2 kurs. Uchinchi va to'rtinchi semestr. Dasturiy talablar:

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada asarlari vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart:

- 1 - O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i yoki O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;
- 2 - jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

3 kurs. Beshinchi va oltinchi semestr. Dasturiy talablar:

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada asarlari vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart:

- 1 - O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i yoki O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;
- 2 - jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

4 kurs. Ettinchi va sakkizinchi semestr. Bitiruv dasturi talabları:

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada asarlari vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart:

- 1 - O'zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asari;
- 2 - jahon estrada va jaz yulduzlarining turli stilistik yo'nalishidagi zamonaviy asarlari (original tillarda).

Kirish

"Ansambl" fanning mazmuni, tushunchasi, asosiy ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar, ulardan unumli foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar.

1-mavzu. Ansambl fanining maqsadi va vazifalari, musiqa ta'limidagi o'rni.

Ansambl fani amaliy mashg'ulotlar tarzida o'tiladi. Ansamblida ovoz sozlash (ovozi mashqlari). Badiiy estrada asarlarini tanlash, talaba guruhini ansambl ovozlariga bo'lish.

2-mavzu. Mashg‘ulot jarayoning asosiy bosqichlari.

Xonandalik nafas olish ko‘nikmasini vujudga keltirish; Tirkakli tovushni xis qilish; Aniq talaffuz; Ansamblda kuylash malakalarini egallash; Sof intonatsiya.

3-mavzu. Ansambl ijrochiligi.

Sof intonatsiya va ansamblini xis etish; Ifodali ijroni ko‘rsatmoq; Ansamblda kuylashni rivojlantirish. Gorizontal va vertikal garmonik tuzilmani tahlil qilish; ikki va ko‘p ovozli ijro meyorlari; bek-vokal meyorlar.

4-mavzu. Dasturda ijro etilayotgan asarlarni badiiy obrazi, xarakterini me'yoriga yetkazish.

Rivojlangan texnik ijroni ko‘rsatmoq (nola, glissando, blu-odl, sving va hokazo); Ansamblagi tovushning erkin filirovkasini ko‘rsatmoq; Ansamblda murakkab zamonaviy yo‘nalishlarni as ettirish; Asarlardagi badiiy obrazni ko‘rsatish; O‘tilgan mavzular moduli va ijro dasturiga kiritilgan asarlar bo‘yicha baholash.

5-mavzu. Badiiy professional ijro.

Sof intonatsiya; Ansambl ijrosida vertikal tovushlarni korrektirovkasi; Asarlarning zamonaviy yo‘nalishdagi stilistik ijro; artistlik mahorati; ansambldag‘ usulni his qilish; Ansamblda murakkab zamonaviy yo‘nalishlarni ko‘rsatib berish; Mikrofonni erkin ishlatish va zamonaviy xarakatlarni qo‘llash.

6-mavzu. Ansamblda ovoz sozlash, tovushning erkin filirovkasi.

Ansamblda ovoz mashqlari. Unison mashqlar, tersiya, kvarta, kvinta, oktava intervallari mashqlari. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlari. Sof intonatsiya ustida ishslash. Vokal nafas olish texnikasini egallash. Ansamblda tovush filirovkasi va vibratto uslubini egallash.

7-mavzu. Ansambl ijrosida gorizontal va vertikal garmonik tuzilmaning taxriri. Sof intonatsion ijro.

Ansambl tarkibida (duet, trio, kvartet, bek-vokal) kuylashda sof intonatsiya. Asarlarining gorizontal va vertikal garmonik tuzilmalarini taxrir qilish. Garmonik eshitish qobiliyatni rivojlantirish.

Oralik nazorat

Oraliq nazorat – har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada asarlari vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart:

1 - O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i yoki O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari.

8-mavzu. Badiiy estrada asarlarini o'rganish uslublari.

Ansambl partiyalarini notadan o'qish. Fortepiano va fonogramma minus jo'rligida ansambl asarlarini ijro etish. Badiiy asarlarni ansambl jo'rligida solo kuylash. Badiiy asarlar ijrosida bek-vokal partiyalarini ijro etish. Ansamblda duet, trio, kvartet shaklida kuylash.

9-mavzu. Bek-vokal, duet, trio, kvartet tarkibidagi ijro xususiyatlari.

Xonandalik ansamblida kuylash malakasini egallash. Sinxron va individual kuylash ko'nikmasini egallash. Bek-vokal tarkibida ishlash metodlari. Duet tarkibida badiiy asarlar ijrosi. Trio va kvartet tarkibida badiiy asarlar kuylash qoidalari va metodlari. Ansambl, usul, stilistik yo'nalishni xis etish va ijrosi.

10-mavzu. Chet tillardagi asarlarda sof talaffuz.

Rossiya, G'arbiy Yevropa va AQSh kompozitorlari va estrada-jaz yulduzlari dasturidagi asarlar ijrosida sof talaffuz ko'nikmasini egallash. Rus, ingлиз, frantsuz, italian, ispan tillardagi asarlar ijrosida sof talaffuz ustida ishlash.

11-mavzu. Badiiy professional ijro.

Asarlarning she'riy matnining badiiy ifodasi. Murakkab asarlar ijrosi. Vatanparvarlik ruxidagi asar; Jaz yo'nalishidagi asar; Estrada romansi, ashula yoki ballada asarları ustida ishlash. "Soul" yo'nalishidagi ansambl asarları ijrosi. Asarlar ijrosida badiiy obrazni ko'rsatmoq.

12-mavzu. Sahna mahorati.

Artistizm va sahna mahorati ko'nikmalarini egallash. Vokal ansambl xonandalik texnikasini egallash. Artistik mahorati ko'nikmasini rivojlantirmoq.

13-mavzu. Asarlarning zamonaviy yo'nalishidagi stilistik ijrolar.

Ansamblida ritmni his etish. Zamonaviy vokal-texnik priyomlarini egallash: jazoviy sket, bluy-odl, subton, drayv, qochirim va nola. Klassik va zamonaviy stilistik yo'nalishdagi asarlarning ijrosi. Jaz yo'nalishidagi asarlar ijrosi.

14-mavzu. Chet el tilliridagi asarlar ustida ishlash.

Chet el tilliridagi asarlar ijrosida sof talaffuzga erishish Talabalarda umum musiqiy tushunchalarini rivojlantirish.

15-mavzu. Yakuniy nazoratga tayyorlangan asarlari ustida ishlash.

Estrada xonandaligi ansamblidagi Yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko'rish. O'tilgan mavzular moduli va bajarilgan mashq topshiriqlar bo'yicha baholash.

Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat - har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada asarlari vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart:

1 - O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i yoki O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Estrada xonandaligi ansambl vokal kuylash ko'nikmalarini egallash;
2. Tanlangan asarlarni o'rganish va o'qituvchi bilan repetitsiya qilish;
3. Asarlar jrosida Stil va ansambl intonatsiyasini ishlash. Asar ijrosida yaxlitlikni xis qilish;
4. Vokal ijro texnikasini o'stirish;
5. Estrada xonandaligi ansamblidagi kontsertlarga tayyorgarlik ko'rish;
6. Vokal ijro mahorati, artistizm, stil ifodasi ko'nikmalarini egallash;
7. Talabalar bir-birini tinglab, ijroni baholash;
8. Ayrim asarlarning ijro talqinlari musiqiy yozuvlarini tinglab ko'rish;
9. Tajriba repetitsiyalar vositasida o'z ijodiy yoki ijro yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarini shakllantirish.

Amaliy mashg'ulotlarda faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. Mustaqil ta'limgi tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limgi tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar,

- maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
 - talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
 - faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlearning tahvilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ansamblda kuylash mahoratini rivojlantirish ustida ishlash.
2. Ovoz sozlash tovushning erkin flirovkasi ustida ishlash.
3. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda murakkab zamonaviy ijro yo'nalishlaridan foydalanish.
4. Murakkab asarlarni o'rganib yuqori natijalarga erishish.
5. O'zbek va jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan ikki xil xarakterli asar ustida ishlash.
6. Ijrochilik texnikasini rivojlantirish ustida ishlash.
7. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar davrasida brifinglar, taqdimotlar, asarlarning ijrolari tavsiya etiladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalari)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- estrada musiqasi tarixi va rivoji;
- estrada ansamblari turlari;
- estrada musiqasining uslubiy yo'nalishlari;
- o'zbek va dunyodagi mashhur vokal ansamblari *xaqida tasavvurga ega bo'lishi*;

	<ul style="list-style-type: none"> – estrada vokal ansamblari dasturlarini; – ansambl uchun yaratilgan asarlarining nota matnlarini o‘qishni; – gorizontal va vertikal garmonik tuzilmani tahlil qilishni; – estrada vokal ijrochilik san’atining turli ifoda imkoniyatlarini; – bek-vokal ansambli musiqiy-uslubiy asoslarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; – asar ijrosida sof intonatsiya, rivojlangan garmonik eshitish; – ko‘p ovozlik ansambl asarlarini notaga qarab sof kuylash; – katta va kichik jamoalarni boshqara olish va rahbarlik qilish; – musiqaning mazmuni, shakli va uslubini tushunish; – musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish; – zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash; – turli ansambl va guruuhlar bilan yakka va bek-vokal tarkibida mustaqil ijodiy ishlash <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • blits-so‘rov, Klaster, Sinkveyn, T-sxema; • guruuh tarzda repetitsiyali ish; • konsertlarga tayyorgarlik; • sahnada ijro etish; • guruuhli loyihibar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihibar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, Estrada xonandaligi ansambl asarini to‘g‘ri ijro etish, vokal ijro ko‘nikmalarini egallash; o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralig‘ nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat Ansambl ijro dasturini topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1.R.Islamova. Iskusstvo vokalnogo ansambyla (1 qism). O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan ziyozi”, 2022. – 215 bet.</p> <p>2.R.Islamova. Estradniy vokalniy ansambl. Darslik. T.: “Musiqa”, 2018. – 268 bet.</p> <p>3.R.Islamova. Primenenie interaktivnix metodov i novix informatsionnix i pedagogicheskix texnologiy v dissipline Vokalniy ansambl. O‘quv qo‘llanma. T.:</p>

- “San’at”, 2012. – 48 bet.
- 4.R.Islamova. Vokalniy ansambl. O‘quv qo‘llanma. T.: “O‘zDK”, 2008. – 131 bet.
- 5.D.Omonullayeva. Estrada xonandaligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zDK”, 2007. – 110 bet.
- 6.Amanullayeva D. Estrada xonandaligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Musiqा”, 2015. – 228 bet.

Qo‘simecha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60 son 28.01.2022 yil.
3. Saidova Sh.U. Estrada qo‘sishqlari va vokal ansambllar (xorijiy myuzikllar materiallari asosida). Bakalavrlar uchun uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zDK” 2010. – 136 bet.

Axborot manbalari

1. <https://youtube.com>
2. <http://library.konservatoriya.uz/>
3. <http://www.shou-biznes.uz>
4. <http://www.showbiz.ru>
5. <http://ru.m.wikipedia.org>
6. t.me/MESI_kutubxona
7. <http://estrada-art.uz/>

7.	Fan dasturi Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisllari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil “ <u>30</u> ” aksuzeti -dagi <u>1</u> -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan
8.	Fan/modul uchun mas’ul: R.R.Islamova – O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI “Estrada xonandaligi” kafedrasi professori.
9.	Taqrizchilar: 1.D.D.Amanullayeva - O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI “Estrada xonandaligi” kafedrasi mudiri, professor; 2.R.A.Abdullayev – O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, professor.